

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ZIGMUND FREYD
(1856-1939)

Mening dunyom befarqlik
ummonida suzib yuruvchi
kichik og'riq oroli!

2022

MAY

№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 22 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Samadova Madinabonu Saidjonovna TARIX DARSLARIDA ZAMONAVIY INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH	7
2. Nurmurodova Dilafruz Nasriddinova, Po'latova Svetlana Rizoqulovna SOHIBQIRON AMIR TEMURNING ADOLATLI VA BAG'RIKENGLIGI.....	9
3. Suyarova Zumrad Abdurashidovna MARKAZIY OSIYO INSON SIVILIZATSIYASINING O'CHOQLARIDAN BIRI	11
4. Rasulova Kamola Xazratqulovna ISTIQLOL UCHUN KURASHGAN TARIXIY QAHRAMONLAR.....	13
5. Рамазанова Дилдора Шоназаровна, Халметова Нигора Жумабаевна, Болтаева Лола Исмаиловна ХИВА ХОНИ МУХАММАД РАХИМХОН I ДАВРДАГИ ИСЛОХАТЛАР	15
6. A'zamjonov Murodillo Obidjon o'g'li INKVIZITSIYA SUDINING AHOLIGA TA'SIRI.....	17
7. Xoliqova Maftunaxon Muzaffarovna MAVZUGA ZAMIN USULI ORQALI TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISH	19
8. Бердимуратова Замира Холмуратовна НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ В ТУРКЕСТАНЕ.....	21



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

TARIX DARSLARIDA ZAMONAVIY INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH

Samadova Madinabonu Saidjonovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 8-sonli
IATCHO'IDU maktabida
tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarini samarali tashkil etishda innovatsion pedagogic texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, innovatsiya, interfaol metod, interfaol metodlarni tanlash mezon, Kounfutsiy.

Bizga ma'lumki tarix juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu“ desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagog hodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerak.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishli qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metodlarni tanlash mezon – ularning ta'lim va tarbiyani rivojlantirish masalarni yechishga yuqori yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir.

Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezon ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishdir.

Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi.

Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezon ularning o'quvchilar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarining birligini ta'minlashdir.



Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi.

Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. Darvoqe, o'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki o'quvchi o'rtasidagi bahs hisoblansa, “aqliy hujumda” guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtiroki zarur bo'ladi.

Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi. Ma'lumki, pedagogik texnologik ham ma'lum qonuniyatalar asosida loyihalanadi va o'quv jarayonini tashkil etishga asos yaratadi, joriy qilingach esa yakuniy natijani, o'quvchining u yoki mavzuni mustaqilligini ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, tarix darslari va boshqa fanlarda ham innovatsiyalardan foydalanish ijobiy samara beradi. Xususan, shu o'rinda Donishmand Konfutsiy “Eshitdim – unutdim. Ko'rdim – eslab koldim. Bajardim – tushundim” deb aytgan ekan. Darslarni tashkil etishda ham innovatsiyalardan foydalanish orqali o'quvchilar ham eshitib, ham ko'rib, ham bajarib amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. T. Risqiyev tahriri ostida. T. “Sharq”, 1997, 43 – bet.
2. I. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. “Sharq”. 1998. 7 – bet.
3. Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent,
4. T. Toshpo'latov, Ya. G'afforov Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent, 2002. 22-23 betlar.



SOHIBQIRON AMIR TEMURNING ADOLATLI VA BAG'RIKENGLIGI

Nurmurodova Dilafruz Nasriddinova

Navoiy viloyati Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Po'latova Svetlana Rizoqulovna

Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur buyuk sarkarda va markazlashgan davlat asoschisi ekanligi, yurtimiz tarixida tutgan o'rnini, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida tinchlik o'rnatganligi haqida fikr yuritiladi. Amir Temur o'ziga adolat, kuchlilik va to'g'rilikni shior qilib olishi, o'z yurtini sevgan, ilmiy, qo'rqmas insonlarni doim hurmat qilishi mamlakatni adolat va bilim bilan boshqarishi haqida malumot beriladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, adolat, jang, vatan, xon, alloma, dushman, ilm, davlat.

Vatanimiz va dunyo tarixida muhim o'rin egallagan Amir Temur haqida qimmatli asarlar juda ko'p. Amir Temur — buyuk davlat asoschisi. U Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Samarqandda u bilan birga yashagan kishilar uni eng chiroyli bir inson sifatida tasvirlaydilar. Ammo dushmanlari uni naqadar chirkin, naqadar yuzsiz, manfur va qutsiz etib ta'riflaydilar. O'zining vatandoshlari orasida hozirgacha tildan-tilga o'tib kelayotgan hikoyalarga qaraganda, Temur o'rta bo'yli, oqbadan kishi bo'lib, zahmatli umrini doimiy jang-u jadallarda o'tkazganiga qaramay, umrining oxirgi daqiqalariga qadar o'zining salobati va tetikligini saqlay olgan. Garchi uning bir oyog'i oqsasa-da, urush paytida bu nuqson uncha sezilmas edi. Uning jarangdor ovozi jang baqiriq-chaqiriqlari ichida juda uzoqqa eshitilardi.

Amir Temur turk irqi, eron unsurlari bilan ozgina aralashgani uchun Temurning yuzida sof mo'g'ul siymosi bor edi. Turk sohibqironining soqolini uzun, yonog'ini qizil, o'zini oq tanli etib tasvirlagan. Shuning uchun Temurning faqat libosigina eron yoki G'arbiy Osiyo unsurlarini eslatadi, xolos. Biz Temurning to'qnashuvlar paytida qimmatbaho ipakdan keng kiyimlar kiyganini ko'ramiz. Bu kiyimlar o'sha zamonda musulmon Osiyosida ma'qullanmas edi. Bo'rk uchiga cho'zinchoq yoqut qadalgan, uning atrofi durlar va noyob javohir bilan bezatilgan edi. Uning katta va qimmatbaho zirak taqish odati — mo'g'ullarga xos edi. U umuman zohiriy ziynatlarga va ochiq kiborliklarga iltifotli bo'lgan. U o'zining uzoq davom etgan sohibqironlik hayotida juda ko'p yo'qotishlarga, nochorliklarga chidagan va doimo spartaliklar kabi soddaligiga sodiq qolgan.

Uning tabiiy sifatlaridagi buyuk qirralar shundan iborat. U yoshligida otasining va ruhoniylar imomlarning talqinlari ta'siri bilan hayotga islom va tasavvuf nazaridan qaragan edi. Uning qat'iy jangovar ruhi va chegara bilmas yagona zakovati hamisha bu sifatleri bilan botiniy kurashda edi. So'nggi sifatlar unda g'olib bo'lsa kerakki, o'zi shundan deydi: «Hokimiyatni qo'lda qilich bilangina ushlab turish mumkin». U askariga Isfahonni talon-taroj qilishga ruxsat berganda, ulamolar mahallasiga shafqat qilishni amr etgan; Hirot va Halab ulamolari bilan esa, diniy munozaralar qurgan. O'ziga o'xshab fikr qilmaydigan (ya'ni o'zgacha fikrlaydigan) kishilarga shohona hadyalar bergan.

Ma'lumki, Temur alloma Sharafiddin Halabiy bilan nihoyatda keskin munozara qilgan. So'ngra uni himoyasiga olib, o'zi va muridlariga qimmatli hadyalar berishni buyurgan. Ularning soni 2000 ga yaqin bo'lgan. U libos va hadyalar bilan alloma Shamsiddin qozini, Jaziriyni va mashhur Shayx Buxoriyni o'z tarafiga jalb etishga intilgan. Holbuki, bular uning dushmani saroyida qo'lga olinganlar edi. Ular Temurga ochiq dushman edilar. U qaysi mamlakatni egallasa, uning noyob o'ljasi — shu o'lkaning rassomlari, mohir ustalari hisoblangan. U Bursa kutubxonasidagi kitoblarni yuk tashiydigan hayvonlarga ortib, Samarqandga ko'chirtirgan. Endi shu kishini vahshiy, marhamatsiz deb atash mumkinmi? Demak, Temurni Chingiz bilan bir safga qo'yib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari haqiqatdan ancha uzoq sanaladi. U avvalo Osiyo sarkardasi edi. O'zining g'olib askarlari va qurollaridan o'z zamonasining taomilicha foydalangan. Uning faoliyati, xususan, dushmanlari tarafidan gunoh hisoblangan ishlari va urushlari, teranroq qaralsa, doimo biror jinoyatga jazo tarzida ro'y bergan.

Turk va arab qavmidan bo'lgan barcha jahongirlar va fotihlar kabi Temurda ham Ona Vatanga juda xos darajada tarafkashlik bor. SHuning uchun g'arbiy islom dunyosining siyosiy markazini, shu



bilan birga endilikda ojiz bo‘lib qolgan islom madaniyati asosini Turkiston cho‘llarining yumshoq tuproqlariga ko‘chirishni niyat qilgan edi. Bunga taassuf bilan qarash mumkin. Lekin uni jinoyat deb hisoblamaslik kerak. Temurning shu maslagi uning aziz vatani O‘rta Osiyo uchun nihoyatda muhim va uzoq davom etgan samara berganini gapirib o‘tirishga ehtiyoj yo‘qdir. Kambala, G‘azka, Buxoro saroylarida va boshqa sulolalarning poytaxtlarida hech qachon Samarqand saroyidagidek davlat va boylik to‘planmadi. Bu yerdagi davlat va shavkat isrof etilmadi.

Temur teran fikrlovchi so‘zi tiniq va yaxshi asarlar yozar edi. Buni biz “Temur tuzuklari”dan bilishimiz mumkin.

Shunday bo‘lsa-da, u o‘z zamonidagi rasmiy muharrirlar va shoirlar bilan uchrashganda, ularning qat’iy va taklif so‘zlariga quloq solardi. Osiyoning yarmini titratib turgan, taxti ostida qancha shohlik xonadonlarini yakson qilgan bu odam o‘zining siyosiy ahdlarini quyidagicha, juda sodda iboralar bilan boshlar edi: «Men, tangrining quli Temur, shuni aytamanki...». Keyingi xonlarning yoxud gadoy Buxoro podshohlarining takallufli laqablari bilan buning orasida shu qadar farq kattaki...

Darvoqe, Temur saltanatining sharqiy qismida, doimiy urush va fitnalarga qaramay, jahongirning tirikligida taraqqiyot, diniy ilmlar, dunyoviy fanlar, adabiyot, san’at, me’morchilik rivojlanishda davom etaverdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Herman Vamberi. Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.1990
2. Amir Temur tarixi. Ibn Arabshoh. Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti .1991
3. Allan Edgar. Buyuk Temur. Jahon print, 2016.
4. Vikipediya ochiq ensiklopediyasi.
5. www.tadqiqot.uz



MARKAZIY OSIYO INSON SIVILIZATSIYASINING O'CHOQLARIDAN BIRI

Suyarova Zumrad Abdurashidovna

258-maktab o'qituvchisi

Telefon: +998911921059

zumradsuyarova@gmail.com

ANNOTATSIYA: Hozirgi kunga kelib Vatan tarixiga bo'lgan diqqat-e'tibor nihoyatda kuchaygan bir davrda, O'zbekiston hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligiga hech qanday shubha qolmadi. Nafaqat O'zbekiston, balki, butun O'rta Osiyo xududlarida olib borilayotgan keng maqsaddagi tadqiqot ishlarining natijalari ham Vatanimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan yuqori o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo inson sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: sivilizatsiya, ibtidoiy jamoa, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, neolit, paleolit.

Sivilizatsiya so'zi – lotincha so'z bo'lib, fuqoraviy va ijtimoiy ma'nosida jamiyatning o'z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarning, ularni yanada ko'paytirib va takomillashtirib borish usullarning majmuidir. Insoniyat o'z boshidan katta uch davrni: yovvoyilik, vahshiylik va sivilizatsiyani kechirdi. Sivilizatsiya bundan 5-6 ming yil muqaddam boshlangan.

O'rta Osiyo sivilizatsiyasi turli xududlarda turli davrlarda paydo bo'ldi va rivojlandi. Misol uchun, janubiy xududlarda yashagan qadimgi qabilalar miloddan avvalgi VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o'tib, unumdor xo'jalikni rivojlantirgan bo'lsa, bu davrda shimoliy xududlardagi qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug'ullanganlar. Bu notekslik jarayonini tabiiy-geografik sharoitlar va o'zaro munosabatlar bilan izoxlash mumkin. Undan tashqari O'rta Osiyoda turli-tuman madaniyat yaratgan qadimgi aholining neolit davridiyoq, ya'ni, miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklardagi o'zaro munosabatlari va bu aholining Sharqdagi, dastavval, Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o'choqlari bilan uzviy aloqada bo'lishi ham mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyatni taraqqiyotdagi eng uzoq davom etgan va eng qadimgi davridir. Bu davrni chuqur o'rganishda arxeologiya, etnografiya, antropologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi odamlar o'z faoliyati davrida atrof muhitga ta'sir ko'rsatib, kundalik hayotda o'ziga bo'ladigan mehnat qurollari yasagan, yashash uchun makonlar tanlagan, keyinchalik esa boshpanalar qurganlar. O'z navbatida bu jarayonlar inson faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston xududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgohlari Farg'ona vodiysidagi Selung'ur, Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qo'pol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamoa bo'lib ov qilish bilan shug'ullanishgan. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi odamlardan farq qilishgan. Ular tabiat oldida ojiz bo'lib, unda tayyor bo'lgan mahsulotlarni o'zlashtirganlar. Ilk paleolit, ya'ni ashel' davrining oxirlarida yashagan odamlarning manzilgohlari Qoraqalpog'istonning Ustyurt tekisligidagi Borsakelmas degan yerdan ham topib o'rganilgan. O'rta paleolit davri makonlari Toshkent vohasidagi Obirahmat, Ho'jakent, Samarqanddagi Omonqo'ton, Boysun tog'laridagi Teshiktosh makonlaridan topilgan. Mashhur yodgorliklarning biri Teshiktosh g'or makoni bo'lib bu yerdan turli-tuman qurollar va hayvon suyaklaridan tashqari, 9-10 yashar bolaning qabri qozib ochildi. O'rta paleolit davriga kelib ibtidoiy jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashdi. Ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tish boshlanadi. Shimoldan ulkan muzlik siljib kelishi natijasida olov kashf etiladi. Jamoa bo'lib ov qilish paydo bo'ldi. So'nggi paleolit davriga oid makonlar Ohongarondagi Kulbuloq, Toshkentning g'arbidagi Buzsuv 1 hamda Samarqand shahridan topilgan. Bu davrga kelib odamlar faqat tog'li hududlarga emas, tekisliklarga ham tarqala boshlaydilar. Bu davrning eng katta yutugi urug'chilik tuzumiga (matriarxat) o'tilishidir.

Neolit davriga kelib qadimgi qabilalar hayotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davr odamlari baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik hamda qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Eng katta yutuqlardan biri kulolchilikning paydo bo'lishidir. Shuningdek,



bu davrga kelib to'qimachilik va qayiqsozlik ham paydo bo'ladi. Neolit davri qabilalari xo'jalik shakllariga qarab quydagi madaniyatlarga bo'linadi: Jaytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Joytun madaniyati. Janubiy Turmaniston xududidagi mil.avv. VI-V ming yilliklarga oid madaniyat. Bu yerdan O'rta Osiyodagi birinchi paxsa uylar qoldiqlari, sopol idishlar na'munalari aniqlangan. Aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va qisman ovchilik bilan shug'ullangan. Kaltaminor madaniyati. Qoraqalpogistonning janubidan topilgan bo'lib mil.avv. V-IV ming yilliklarga oiddir. Kaltaminor qabilalari baliqchilik, ovchilik va qisman hunarmandchilik bilan shug'ullangan.

Bronza davrining oxirida yerni sug'orib ekish yanada rivojlandi. Qoraqalpog'istonning janubida hozirgi Turtkul tumani xududida Amirobod deb nomlangan yodgorlik qoldiqlari topilgan. Bu yerdan tarixchi-arxeologlar uzunligi bir kilometrga yetadigan sug'orish kanallari izlarini topganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. <https://hozir.org/markaziy-osiyo-insoniyat-sivilizatsiyasining-qadimgi-ochloqlari.html>
2. <https://hozir.org/2--mavzu-markaziy-osiyo-sivilizatsiya-ochloqlaridan-biri.html>
3. <https://milliycha.uz/markaziy-osiyo-insoniyat-sivilizatsiyasining-qadimgi-ochloqlaridan-biri/>



ISTIQLOL UCHUN KURASHGAN TARIXIY QAHRAMONLAR

Rasulova Kamola Xazratqulovna

Zarafshon kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi.

Telefon:+998(93)6612326

kamolarasulova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vatanimiz ozodligi, erki va sha'ni uchun kurashgan ajdodlarmiz va ularning jasoratlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Vatanparvarlik, mardlik va adolat kabi tushunchalar mazmuni yoritib berilgan

Kalit so'zlar: Vatan, xalq, el- yurt, kurash, jasorat, mardlik, istiqlol, sadoqat, aholi, tinchlik, qo'shin, davlat, tarix.

O'zbekistonning go'zal va boy tabiati, turli-tuman noz-ne'matlariyu musaffo havosi, zilol suvlariyu ajoyib manzarasi ko'p jahongashta podshohlarning diqqatini jalb etgan. Chunonchi, Eronda tashkil topgan Ahmoniylar davlati, makedoniyalik Aleksandr, Arab xalifaligi, Chingizxon kabi bosqinchilar Turon zaminida o'z hukmronliklarini o'rnatgan edilar. Pirovardida esa, Turkiston podsho Rossiyasi tomonidan bosib olindi. Bosqinchilarga qarshi kurashda o'n minglab o'zbeklar halok buldilar, obod shahar va qishloqlar xonavayron qilindi, fan va madaniyat inqirozga uchradi. Shuncha qiyinchiliklarga qaramay bobolarimiz Vatan mustaqilligi uchun tinimsiz kurashdi, mehnat qildi, madaniy merosini ko'z qorachig'iday saqlab, avloddan avlodga o'tkazib keldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tarixiy shaxslarning yuzaga kelishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Chunonchi eramizdan oldingi 592 yilda Ahmoniylar davlatining podshohi Kir II Movarounnahrni bosib olish harakatiga tushdi. Bu yerda u ayol podshoh To'maris qo'shinlari bilan qattiq jangda to'rtinchi qat'iyat bilan qat'iyat qilindi. Kir II esa o'ldirildi. Jahonda yakkahokimlik uchun kurashgan Kir II ning ayol podshohdan sharmandalarcha yengilishi – To'marisning mohir lashkarboshi va o'ta vatanparvarligidan dalolat beradi. Bu o'rinda oddiy xalq orasidan chiqqan otboqar Shiroqning qahramonligini ham eslatib o'tish joiz. Ahmoniylar podshohi Doro I huzuriga hamma yog'i jarohatlangan, burni va qulog'i kesilgan Shiroqni olib kelishadi. U Doroga: "Vatandoshlarim meni shu ahvolga solib qo'ydi ulardan qasos olish uchun huzuringizga keldim. Men dushmaningizning orqa tarafidan chiqadigan yo'lni bilaman", degan. Shiroq boshchiligidagi yo'lga chiqqan Eron qo'shinlari cho'lu biyobonga kelib qoladilar. Aldanganini bilib Shiroqni o'ldirayotganda u mag'rur bo'lib: "Men vatanim ozodligi uchun siz yovuzlarni suvsizlikka, ochlikka muhtalo qildim." deb halok bo'lgan. Shiroqning bunday vatanparvarligi tarixda uchramagan bo'lib har qanday maqtovga loyiqdir.

1219 yilda Chingizxon boshchiligidagi qo'shinlar Turkistonga bostirib kirib, O'tro'ni qattiq janglardan so'ng egalladi. So'ngra Buxoro va Samarqand ham egallandi. Bosqinchilarga qarshi kurash xalq harakatiga aylanib ketdi. Ana shu og'ir damlarda hukmron doiralar orasidan chinakam o'z vataniga sodiq va jasoratli shaxslar ajralib chiqdi. Muhammadshohning katta o'g'li Jaloliddin va Xo'jand hukmdori Temur Malik shular jumlasidandir. Mo'g'ul bosqinchilarining harbiy yurishlaridan O'rta Osiyo shahar va qishloqlari xarobaga aylandi. Yuz yillar davomida qo'lga kiritilgan moddiy va ma'naviy meroslar o'stin-ustun qilib tashlandi. Bunday holat insoniyat tarixida sodir bo'lmagan edi. Bu dahshatli voqealarning guvohi bo'lgan arab tarixchisi Ibn al-Asir shunday yozgan edi: "Kun tunlarda misli ko'rilmagan va hamma yoqni, xususan, musulmonlar yaratgan boyliklarni qamrab olgan g'oyat katta bir falokat bo'ldi. Agar birov, hamma narsaga qudrati yetuvchi va har narsaning ustidan turuvchi Alloh odamni yaratgandan buyon dunyo shu mahalgacha hech bunday narsani ko'rmagan, desa haq gapni aytgan bo'lardi, darhaqiqat, yilnomalarda bunga o'xshash va unga teng keladigan bunday zur falokat bo'lmagan. Biroq mo'g'ullarning dahshatli qirg'in urushlari ham o'zbek xalqining vatan ozodligi uchun kurashini so'ndira olmadi.

XIV asrning 50-60 yillarda o'lkada parokandalik avj olib, xalqning ahvoli yanada yomonlashdi. Shunday sharoitda Temur siyosiy maydonga chiqdi. U yoshligidanoq kelajagi porloq siymo sifatida tanildi. Amir Temurning zimmasiga juda katta vazifalarni bajarish mas'uliyati bilan birga, muqaddas Vatanni ajnabiy bosqinchilardan ozod qilish mas'uliyati ham tushgan edi. Buyuk bobomiz hududiy jihatdan insoniyat tarixida eng katta, kuchli, markazlashgan ulkan davlatga asos soldi. Amir Temur Turon zaminida buyuk uyg'onish-Renessans davrini boshlab berdi. Temuriylar davrida shaharsozlik, me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, zardo'zlik, metallga badiiy ishlov berish, xattotlik, ilm-fan, adabiyot, musiqa kabi sohalarining o'ta rivojlanganligi bizgacha yetib



kelgan moddiy va ma'naviy manbalardan bilib olishimiz mumkin. Turonda yaratilgan Renessans XV asrdayoq Xuroson va Hindiston Yevropa mamlakatlarida ham o'z shu'lasini socha boshladi.

. Milliy istiqlol kurashchilaridan biri, qatag'on qurboni, buyuk ma'rifatparvar A. Fitratning "Vatan sajdagohimdir", degan iborasida olam-olam ma'no aks etishini anglash qiyin emas.

Shunday ekan, yosh avlodni tarbiyalash, ular ongida milliy istiqlol tafakkurini va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda O'zbekiston tarixining o'rni va ahamiyati beqiyos. Chunki tarix kishilarni o'ylantiradi, mushohada qilishga undaydi. O'zbekiston tarixini o'rganish orqali buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanibgina qolmay, o'z so'zimizni aytishimiz, mustaqil fikrlashimiz, tafakkurimizni namoyon etishimiz ham talab etiladi. Zero, jannatmakon yurtimizning tinchligini avaylab asrash, qadriga yetish, o'tayotgan har bir osoyishta kun uchun shukronalik keltirish, qolaversa, Vatan ravnaqi yo'lida ezgo' maqsadlarimizni amalga oshirish orqaligina biz vatanparvarlikdek sharaflı burchimizni ado etgan bo'lamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Grekov.B.D. Yakubovskiy.A.Yu. Oltin O'rda va uning qulashi. Toshkent, 1956, 46-bet.
2. Temur tuzuklari .G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1996.
3. Muloqot jurnali Toshkent,; 1996yil 3-soni



ХИВА ХОНИ МУХАММАД РАХИМХОН I ДАВРДАГИ ИСЛОХАТЛАР

Рамазанова Дилдора Шоназаровна,
Хоразм вилояти Янгибозор тумани
№1 сон мактаб 2 тоифа тарих ўқитувчиси
Халметова Нигора Жумабаевна
1 тоифали ўқитувчи
Болтаева Лола Исмаиловна
1 тоифали ўқитувчи

Аннотация: Ушбу мақолада Хива хони Муҳаммад Раҳимхон I давридаги ўзгаришлар давлат бошқарувидаги ислохотлар ҳақида боради.

Калит сузлар: меҳтар, Олий Кенгаш, қушбеги, хужаш маҳрам, қози.

Муҳаммад Раҳимхон ибн Аваз иноқ ибн Муҳаммад амин иноқ (1775 -1825) ўзбек қўнғиротлар сулоласидан Хоразм хони(1806-1825). Акаси Элтузархон вафотидан кейин тахтга ўтирган (1806). Хива хонлигини бирлаштиришда ижобий натижаларга эришган бир қанча сиёсий иқтисодий маъмурий ислохотлар ўтказган. Хон саройи қошида доимий фаолият курсатувчи(девон) таъсис этилган. Муҳаммад Раҳимхон I Хива хонлигини бирлаштиришда ижобий натижаларга эришган: бир қанча сиёсий, иқтисодий, маъмурий ислохотлар ўтказган. Мамлакатни бирлаштириш йулида бир қанча ишлар қилган. У Орол бўйи қорақалпоқларни бўйсундириш учун бир неча марта юриш қилиб 1811 йилда Тўрамурад сўфини енгиб хонликни мустаҳкамлаган.

Муҳаммад Раҳимхон I бобоси Муҳаммад Амин иноқ бошлаган Хива хонлигидаги халқларни бирлаштириш ишини муваффақиятли амалга оширди. Унинг фармони билан ўзи раислигида. Олий Кенгаш тузилди. Кенгашнинг биринчи аъзоси хоннинг севиқли ва ишончли кишиси Муҳаммад Юсуф меҳтар, иккинчи аъзоси жуда ақилли, жасур, қўнғилчан ва илтифотли вазир Муҳаммадиёр қушбеги бўлиб, хоннинг севиқли ва ҳурматли акаси Қутлуғ Мурод иноқ ҳам кенгаш аъзоси эди. Хўжаш маҳрам кенгашда аъзо бўлмаса ҳам қатнашади. Унинг отаси Хуросондан асир олиб келинган ва Хивада мусулмончилиқни қабул қилгач, уйланган. Хўжаш маҳрам урушдаги хизматлари учун озодлик мукофотини олган ва кейинчалик божхона бошлиғи бўлиб, бойиб кетган. У қурдирган мадраса Паҳлавон Маҳмуд мақбарасининг шимолий ғарбида жойлашган.

Янги тузилган кенгашда турт ўзбек уруғининг йулбошчилари ҳам қатнашади. Кенгаш жума куни хон саройининг кўриниш хонасида бўлади. Аввал овқатланиб, кейин муҳокама бошланади. Муҳаммад Раҳимхон даврида ичимлик ичиш, банг чекиш қатъий таъқиқланган. Шаҳарларни ободонлаштириш, фақирларни шод қилиш асосий мақсад қилиб қўйилган. Мажлислар тузилиб олиму фузалолар ва шоиру донишмандлар билан китобхонлик кечаларини ўтказган. Унинг замонасида янги мадрасалар ва масжидлар қурилган, божхона ва бошқа фойдали муассасалар ишга туширилган. Муҳаммад Раҳимхонни Хива хонлигига келган рус элчиси Н.Н.Муравьев Карский шундай таърифлайди: “Муҳаммад Раҳимхон I баланд бўйли, катта гавдали, нигоҳи ўткир, иродаси кучли, жасур ва тadbиркор бўлган, уни кучли от ҳам икки соатдан ортиқ кўтариб юра олмаган”. У араб, форс ва туркий тилларда гапириб, ўқиб ва ёзиб билган учун халқ уни “Охун хон” деб атаган. Кам ухлаган, шахмат ўйнининг ишқивози, байрамларни айниқса ҳафта байрамларини бениҳоя ҳурмат қилган. Кишиларни лавозимига ёки келиб чиқишига қараб эмас, балки ишига қараб баҳо берган. Ўта тақводор одам бўлиб, ҳамма жойда қабристонлар зиёратини бажо келтириб юрган.

Муҳаммад Раҳимхон I даврида Олий Кенгаш ва Кичик Кенгаш жорий қилинган. Лавозимларнинг 300тадан 100гача камайтирган. Бошқарув тизимини ихчамлаштирган. Солиқ йиғиш тизимини мукамаллаштирган. Йиғилган солиқларни тўғри тақсимлаган. Бева бечораларга ғамхўрлик қилган. Унгача тўпланган солиқлар кўпчилиги солиқ йиғувчи амалдорларнинг қўлида қолиб кетган. Муҳаммад Раҳимхон даврида эса солиқ тўлаш иши марказий ҳукумат қўлига ўтди. Хазинага фуқаролардан тушган даромад ва харажатлар маҳус дафтарларда қайд этилиб, хоннинг назорати остида бўлди. Эндикида солиқнинг миқдори мулкдорларга қарашли экин майдоннинг ҳажми ҳамда ҳосилига қараб белгиланган. Бундан ташқари чегараларда божхоналар ташкил этилган. Юқоридаги барча



чоралар тадбирлар хонликдаги ички ва ташқи савдонинг ривожланишига олиб келди.

Мухаммад Рахимхон даврида харбий салохият ҳам анча ошди. Хива тарихчиси Юсуф Баёнийнинг ёзишича, хоннинг мунтазам отлик қўшинлари 13 мингдан зиёд бўлган, ўзбек, туркман, ва қорақалпоқ хон қўшинининг асосий ўзагини ташкил этган. Навкарларга харбий хизматлари учун ер ажратиб берилган ва улар солиқлардан озод этилган. Рус элчиси Н.Муравьев ўз ҳисоботида шундай деб ёзади: “бутунлай янги давлат барпо қилди дейиш мумкин. Эндиликда бу давлат Ўрта Осиёда энг кучли хонликлар жумласига киради”.

Мухаммад Рахимхон Қўнғирот элига шикор билан бориб, қайтишда Хўжа элида ҳасталаниб қолади. Хивага келгач касали зиёда бўлиб, табибларнинг давоси фойда қилмай бир ярим ойдан кейин бақо оламига кетади. У 1825 йил вафот этган. Унинг қабри Пахлавон Махмуд макбарасида жойлашган. Мухаммад Рахимхон хива хонлиги учун қилган хизматлари бениҳоя катта. Унинг бошқарув ислохатлари, харбий ислохатлари ҳамда чегараларни мустаҳкаллаб Хива хонлигини марказлаштирган ва ривожланишининг янги поғонасига қўтарган.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1) Йўлдашев М.Й. Хива хонлигидаги ер эгалиги ва давлат тузилиши Т.,1959й
- 2) Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар Т., Ўқитувчи 1994й
- 3) Муминов И. История Хорезма древнейших времен до наших дней Ф.1989г.



INKVIZITSIYA SUDINING AHOLIGA TA’SIRI

A’zamjonov Murodillo Obidjon o’g’li

O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

Annotasiya: ushbu maqolada o’rta asrlarda G’arbiy Yevropani dahshatga solgan katolik ruhoniylar tomonidan amalga oshirilgan inkvizitsiya sudlarining aholiga ta’siri xususida so’z boradi.

Kalit so’zlar: papa, katolik, inkvizitsiya sudi, inkvizitor, autodafe, katolik qirollar, yangi xristianlar, yeretiklar.

Ham qarorlari, ham siyosiy va diniy ta’sir sababli uchta katta inkvizitsiya tarixda nom qoldirdi. O’rta asr inkvizitsiyasi valdeneslar va katari oqimi mavjud nizomni larzaga soluvchi ta’limotlar yoya boshlagach, 1231-yilda Papa Grigoriy IX tomonidan asos solindi.

Ispaniya inkvizitsiyasi esa, Kastiliya qirolichasi Izabella I ning talabiga ko’ra Papa Sikstus IV tomonidan 1483-yilda tasdiqlandi. Bu ish musulmonlar va yahudiylarni o’z e’tiqodlariga bog’lab olish maqsad qilingan edi. Shu sababli 200.000 yaqin yahudiy 1492-yilda Ispaniyani tark etdi¹.

Rim inkvizitsiyasi Rim katolik cherkovi qo’llab-quvvatlagan ta’limotni himoyalash maqsadida Pavel III tomonidan 1542-yilda tashkil etildi. Umumiy ravishda kalvin va luterchilarga urush e’lon qildi. Rim inkvizitsiyasi jodugarlik va sehrgarlik bilan ham uzoq yillar kurash olib bordi.

Gunohkorlarning sonlari qizdirilgan ombirlar bilan siqilardi. 1486-yilda german inkvizitsiya tergovchilari tomonidan qalamga olingan “Jodugarlar to’qmog’i” nomli risola inkvizitsiya sudi qo’llagan ba’zi qiynoq usullarini butun tafsiloti bilan gavdalantirib beradi².

O’z navbatida inkvizitsiya aynan diniy isyonkorlik uchun emas, balki ilmiy kashfiyot sifatida ilgari surilgan “bid’at tashabbuslari” uchun ham beayov kurash olib bordi. Natijada ko’plab mustaqil va ilmiy fikrga ega bo’lgan fan arboblari inkvizitsiya qurbonlariga aylanishdi. Katolik cherkovi o’rta asrlarda o’z qudratini mustahkamlab olgach, e’tirof etilgan ta’limotlarga qarshi chiqqanlarni jamiyat dushmani sifatida e’lon eta boshladi. Biroq o’z ishi uchun pushaymon bo’lmaganlar ham bor edi:

Roger Bekon (1220-1292). Britaniyada yashagan kalt olimi tajriba-sinov usulini birinchi bo’lib ilgari surgan o’rta asr ziyoli kishilaridan edi. Lupani kashf qilgan birinchi inson sifatida tarixda qoldi. Fransiskan ta’limotini tanqid ostiga olgani uchun 15 yil qamoqda yotdi.

O’kxamli Villiam (1285-1347). Ingliz faylasufi, borliq masalasidagi o’tkazuvchanlik va ushlab qolish asosini kashf qilgan. Papalikka qarshi imperiyani qo’llab-quvvatlashning injilga to’g’ri kelishini aytgani uchun mahkum etildi. Biroq Muniha qochib, hayotini o’sha yerda davom ettirdi.

Giardano Bruno (1548-1600). Aristotelchi yopiq koinot qarashidan ilk ajralib chiqqanlar orasida joy olgan italyan faylasuf. Kopernikning fikrlarini himoya qildi. Koinotda dunyodan boshqa ham ko’plab sayyoralar borligini aytdi. U koinotning cheksizligi fikrini o’rtaga tashlagani uchun cherkov tomonidan juda og’ir va uzoq qiynoqlarga duchor qilingandan so’ng jazolandi. Muxolif fikrlarga ega bo’lgani uchun Rimda ustunga bog’lab, tiriklayin yoqildi.³

U o’yning tortish kuchi, suvlarning ko’tarilish va tortilishini, bir xil sig’imdagi jismlarning bir xil vaqtda yerga tushishini isbotlab berishiga qaramay, inkvizitsiyaning asosiy dushmani deb e’lon qilindi. Shuningdek, yupiterning ikki yo’ldoshini, o’zi o’ylab topgan va haliyam insoniyatga xizmat ko’rsatayotgan teleskopini kashf qildi. Issiqlik va harorat, harakat va tezlik orasida o’rnatgan munosabat haliyam to’laligiga o’z yechimini topmagan.

Galiley ham bu oqibatdan qutilib qolish uchun inkvizitsiya sudi oldida dunyoning quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikridan qaytishga majbur bo’ldi.⁴ Ayni paytda xristianlikka e’tiqod qiluvchilar kishilar uchun emas, balki islom va yahudiy diniga e’tiqod qiluvchilar ham inkvizitsiyaning keng va beshafqat faoliyat doirasiga kirar edi. Shunga ko’ra tarixning juda ko’plab g’avg’oli yillarida bu sovuq munosabat davom ettirildi. Jumladan, 1492 yilda (2 yanvar) kardinal Don Pedro de Mendoza al-Hamro saroyining Aljazaba deb atalgan asosiy minorasiga kumush xochni tikib

1 W. M. Watt. Islom Avrupada (tarj. Hulusi Yavuz). Istanbul. 1989. 128-140 b.

2 R. C. Finucane. “Inquisition”. ER, VII. P. 251-255.

3 Захар Плавский. Испанская инквизиция. Палачи и жертвы. Москва., Дмитрий Булакин. 2000. С. 147.

4 Артур Арну. История инквизиции. Москва., Евразия, 1995, С. 258.



Ispaniyada musulmonlar hukmronligiga nuqta qo'yilganini bildirdi. 500 ming aholisi bilan Yevropa qit'asining eng katta shahri bo'lgan G'irната (Grinada) ispanlarga taslim bo'ldi. Shaharda yashovchi musulmonlar xristian bo'lishga majburlandi. Bundan bosh tortganlar Afrikaga surgun qilindi. O'z xohishlari bilan surgunni ma'qul ko'rgan musulmonlar ham yo'lda ispanlar hujumi va qaroqchilar tajovuziga uchrab, katta talofat ko'rdilar. Qochib qolganlar qutilib, qocha olmagan musulmonlar esa ommaviy tarzda o'ldirildi.

Inkvizitsiyaning dindor yoki dindor bo'lmagan va qaysidir ma'noda hakam vazifasini bajaruvchi ikki yordamchisiga muqobil ayblanuvchi shaxsning advokati yoki uni himoya qiladigan kishisi yo'q edi. Aybdor deb topilgan qiynoq bilan va o'tda yoqishdan boshlab turli ko'rinishlarda o'ldirish bilan jazolanardi. Jinoyatlari yengil bo'lganlar salb yurishlariga ishtirok etishdek “yengil” jazolar bilan “siylanardi”. Pushaymon bo'lganlardan ba'zilari umrbo'yi devorlar orasida yashashga mahkum edi. Inkvizitsiya jazolari orasida xayolga kelmagan qiynoq usullari bor edi.¹

Inkvizitsiya sudlari garchi har qancha “murtad”lar va diniy ta'limotga qarshi fikrlar aytuvchi “bid'atchi”larga nisbatan murosasiz kurash olib borgan bo'lsa-da, ilm-fan sohasidagi yangiliklar, kashfiyot va ilmiy asoslangan fikrlar ilm daholari tomonidan katta jasorat bilan baralla aytiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kürşat Demirci. “Hristiyanlık”. DM. XVII. 328-339.
2. Девятова С.В. Современное христианство и наука. М., 1994.
3. Артур Арну. История инквизиции. Москва., Евразия, 1995.
4. Захар Плавский. Испанская инквизиция. Палачи и жертвы. Москва., Дмитрий Булакин. 2000. С. 470.

¹ Воил Алий Хусайн. Махкамат ат-тафтиш вал-масъулият ал-ғарбия. Роя журнали № 186 сон. Байрут. 1982.



MAVZUGA ZAMIN USULI ORQALI TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISH

Xoliqova Maftunaxon Muzaffarovna

Farg'ona viloyati Yozyovon tumani

1 – maktab tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda ayrim interfaol metodlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: samaradorlik, mavzuga zamin, pochta qutisi, topib ko'rchi metodi.

Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi.

Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu“ desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

“Mavzuga zamin” usuli

Maqsad: O'quvchilarni o'tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash ya'ni zamin hozirlash. Bizga ma'lumki o'quvchilar mavzuni o'qituvchitushuntiribberishichog'idavao'zidarslikdano'qibo'zlashtirishimumkin. Lekinbudegani sinfda hamma o'quvchilar o'zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o'quvchilarning xotirasi, fikrlash doirasi birdayin bo'lmaydi. Shuning uchun ularga turli xil o'yinlar, sahnali ko'rinishlar, baxs-munozaralar orqali darslar tashkil qilinsa, sinfdagi uncha yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan, mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni mustahkamlash chog'ida, avvalombor, o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak. Yaxshi dars o'tilishi, o'quvchilarning yaxshi o'zlashtira olishi eng birinchi navbatda o'qituvchi o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi, o'tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o'tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o'quvchilarni o'tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog'liq. Bu usul ko'proq o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi, o'tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlatiladi. Bu usul 5-11 sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlariga 5- 7 kishidan bo'linishlari kerak. Guruhlarga bo'lish chog'ida guruhlarning kuchlari teng bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3 ta yaxshi o'zlashtira oladigan o'quvchilarni va unga yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarni joylashtirib bo'lish kerak.

Har bir guruh o'ziga nom qo'yish kerak. Buning uchun o'qituvchi guruhlariga quyidagicha murojaat qiladi: „Siz guruhga nom qo'yayotganda quyidagilarga e'tibor bering?



Siz guruhingizga o'tilgan mavzuning ichidan biror-bir voqeani keltirib chiqaruvchi so'zlar yoki o'tilgan mavzuning asosiy mazmunlaridan birini tashkil etuvchi so'zlar orqali nom qoying; Guruhingiz bilan bu nomni nima uchun qo'yganligingizni aytib berish uchun tayyorlaning (1-minut vaqt beriladi). Har bir guruh nom qo'yib bo'lgandan so'ng, u guruhlardan bu nomni nima uchun qo'yganligi so'ralishi kerak.

Yuqoridagilarni o'tkazib bo'lgandan so'ng, o'quvchilar o'tilgan mavzu haqida qisqacha tushuncha hosil qilib, o'quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun zamin hozirlanadi. Keyin o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun shu guruhlarga savollar, topshiriqlar berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.N.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. Asqarov A. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" 1992. № 7-8.



НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ В ТУРКЕСТАНЕ

Бердимуратова Замира Холмуратовна,
учитель истории I категории
Навоийская область, Хатырчинский район
Специализированная школа №7

Аннотация: Джадиды стремились овладеть достижениями восточной и западной культур, учились и призывали других к тому же побывав за рубежом, просветители сумели разглядеть и сопоставить уровни развития культуры и образования различных стран.

Ключевые слова: Джадиды, «Таржимон», школы «усули джадид».

Прогрессивные силы, ставившие целью процветание края, существовали во всех слоях общества — среди ремесленников, дехкан, купцов, собственников и улемов. В широком распространении джадидских идей большая роль принадлежит газете «Таржимон» («Переводчик»). Визиты Исмаила Гаспринского в Ташкент, Самарканд и Бухару в 1893 г. послужили толчком для последующего распространения просветительских идей. В 1893 г. в Бухарском эмирате открылась первая новометодная школа. Наряду с изучением опыта крымской интеллигенции в своих просветительских действиях джадиды Средней Азии использовали передовые идеи прогрессивных деятелей других стран. Возраст участников прогрессивного движения в Средней Азии отличался от других представителей данной прослойки. В 1910 году самому молодому из них Абдулхамиду Чулпану было 13 лет. Самому старшему Махмудходже Бехбуди — 36. По своим территориальным особенностям движение джадидов в Средней Азии подразделялось на джадидов Туркестана, Бухары и Хивы. Основа джадидов Туркестана составляла интеллигенция, стоявшая в первых рядах сопротивления против колониальной политики Российской империи. Начиная с 1910 года джадидское движение в Бухаре приняло организованный характер и стало формироваться в качестве политической организации. Распространение просветительства в Туркестане встретило серьезное сопротивление в лице колониального правительства и его чиновников. Но, несмотря на это, джадиды продолжают свою деятельность в театральной, печатной и издательской сферах. В 1898 году Салохиддин домла открывает в Коканде вторую джадидскую школу в Андижане, а Маннон — кори — в Ташкенте, где они вводят новометодные формы образования. В реализации своих идей, выражавшихся в Средней Азии, прогрессивные силы особое значение придавали борьбе с фанатизмом, безразличием и отсталостью. При решении этих задач первоочередное внимание отводилось следующим направлениям: расширению в крае сети новометодных школ, обучению одаренной молодежи за рубежом, созданию различных просветительских обществ и театральных трупп, изданию газет и журналов, построению в Туркестане национального демократического государства путем повышения общественно-политического и культурного сознания народа. Новометодные школы служили не только ускоренному и легкому овладению грамотой, но и формированию нового мировоззрения, свободного от фанатизма и консерватизма.

Джадиды стремились овладеть достижениями восточной и западной культур, учились и призывали других к тому же. Побывав за рубежом, просветители сумели разглядеть и сопоставить уровни развития культуры и образования различных стран. И у проницательной молодежи появилось намерение внедрить в Туркестане достижения мирового прогресса. В результате, на первом этапе. Перед джадидами встала задача реформирования образования.

Хотя основная деятельность видных представителей джадидского движения начиналась с просветительства, их идейное влияние на массы играет важную роль при становлении национально-освободительного движения народов Туркестана.

Литература:

1. Касимов, Б. «Миллий Уйғониш». Ташкент. 1997.
2. Имамназаров, М. «Миллий маънавиятимизнинг такомил боскичлари». Т., «Иқтисод молия», 2008.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000